**Autsorsing shartlari asosida ovqatlanishini tashkil etish uchun**

**ShARTNOMA № 4**

Nurafshon sh «15» sentyabr 2022 yil

Keyingi o'rinlarda Buyurtmachi deb ataluvchi **Toshkent viloyati Nurafshon SHTB** nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi bosh shifokori M.M.Peltabaeva bir tomondan va keyingi o'rinlarda Autsorser deb ataluvchi MCHJ "WELKOME GUESTS " nomidan Ustav (ishonchnoma) asosida faoliyat yurituvchi direktori G'.ALLAYEV ikkinchi tomondan, keyinchalik Tomonlar deb ataladi, ushbu Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

**I. Shartnoma predmeti**

1.1.Autsorser Buyurtmachining topshirig'i bo'yicha mazkur Shartnomaning 1.2-bandida qayd etilgan xizmatlarni ko'rsatish, Buyurtmachi esa — ushbu xizmatlar uchun pul to'lash majburiyatini oladi.

1.2.Autsorser mazkur Shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan muddatdan boshlab u tugaguniga qadar har kuni shifoxonani oziq-ovqat payoklarining belgilangan me'yorlari hamda O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari bilan belgilangan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya etgan holda Buyurtmachi bilan kelishilgan taomnomaga muvofiq besh mahal issiq ovqat(nonushta, tushlik, poldnik, kechki ovkat) bilan ta'minlash majburiyatini (keyingi o'rinlarda Xizmatlar deb ataladi) o'z zimmasiga oladi.

**1.3. Xizmat ko'rsatish muddati:**

2022 yil « 15 » sentyabrdan 2022 yil «31» dekabrgacha.

1.4. Tomonlar bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va Autsorser tomonidan amalda ko'rsatilgan Xizmatlar uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hisob-fakturani imzolaganidan hamda Buyurtmachi tomonidan Autsorserning mazkur Shartnomada ko'rsatilgan bank hisobraqamiga pul mablag'lari o'tkazilgandan so'ng Xizmatlar ko'rsatilgan deb hisoblanadi.

**II. Tomonlarning huquqlari va majburiyatlari**

2.1. Autsorser quyidagilarga majbur:

2.1.1. Taomni va tayyor mahsulotni sifatli tayyorlash bo'yicha sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarining taom tayyorlash va ovqatlanishni tashkil etishga taalluqli qismlaridagi talablarga to'liq mos keladigan Xizmatlar ko'rsatish.

2.1.2. Ovqatlanuvchilarning ovqatlanishini tashkil etishda tegishli sifat sertifikatlari bilan tasdiqlangan oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanish.

2.1.3. O'zining omborida saqlanayotgan oziq-ovqat zaxiralarini yangilab turish.

2.1.4. Autsorser tomonidan sifatli va yangi maxsulotlar xarid qilish.

2.1.5. Xizmatlarni mazkur Shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan muddatda va to'liq hajmda ko'rsatish.

2.1.6. Xizmatlar ko'rsatish jarayonida Autsorser mazkur Shartnoma shartlariga amal qilmasdan, ovqat sifatining yomonlashuviga olib kelgan barcha kamchiliklarni Buyurtmachining talabi bo'yicha bir kun davomida bepul bartaraf etish.

2.1.7. Taomni tayyorlash jarayoniga faqat belgilangan tartibda tibbiy tekshiruvdan (ko'rikdan) o'tgan xodimlarga ruxsat etish.

2.1.8. Xodimlar zimmasiga Buyurtmachining hududida odob-axloq qoidalari, shuningdek, ichki kun tartibiga rioya qilish majburiyatini yuklash.

2.1.9. Xizmatlarni bevosita ko'rsatish.

2.1.10. Xizmatlar narxini oshirmagan holda shaxsiy mablag'lari hisobidan:

soliqlar to'lash;

belgilangan tartibda u bilan mehnat shartnomasi tuzgan xodimlar mehnatiga haq to'lash;

oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish;

oziq-ovqat mahsulotlarini savdo shoxobchalaridan xizmat ko'rsatish joyigacha yetkazish;

sovutuvchi kompressorlar va boshqa jihozlarni soz holatda saqlash, ta'mirlash, qayta to'ldirish;

ijaraga olingan bino, xona, mebelь, inventarь va boshqalarni zarur holatda saqlash va joriy ta'mirlash.

2.1.11. Tomonlar imzolaydigan tegishli qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va alohida ijara shartnomasini rasmiylashtirgan holda Buyurtmachidan ishlab chiqarish xonalari, jihozlar va oshxona mebelini qabul qilib olish.

2.1.12. Mazkur Shartnomani bekor qilish haqida Buyurtmachini bir oy oldin yozma ravishda ogohlantirish, ushbu muddat tugaguniga qadar esa Buyurtmachi ovqatlanishini uzluksiz tashkil etishni ta'minlash.

2.2. Buyurtmachi quyidagilarga majbur:

2.2.1. Bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi narxlar bo'yicha bir oyda kamida bir marta Xizmatlar haqini to'lash.

2.2.2. Autsorserga shaxsiy tarkibning ovqatlanishini tashkil etish uchun ijara shartnomasi doirasida «nolь» stavkasi bo'yicha oshxonalarning ishlab chiqarish xonalari, jihozlari va mebelь anjomlarini vaqtincha foydalanishga berish.

2.2.3. Tomonlar imzolaydigan tegishli qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va alohida ijara shartnomasini rasmiylashtirgan holda Autsorserga oshxonalarning ishlab chiqarish xonalari, jihozlari va mebelini topshirish.

2.2.4. Mazkur Shartnomani bekor qilish haqida Autsorserni bir oy oldin yozma ravishda ogohlantirish.

2.3. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

2.3.1. Autsorserning faoliyatiga aralashmagan holda bajarilayotgan ishlarning yuritilishi va sifatini istalgan vaqtda tekshirish.

2.3.2. Buyurtmachi Shartnomani bajarishni rad etishi to'g'risidagi xabarnomani olguniga qadar Autsorserga ko'rsatilgan xizmatlarning qiymatini belgilangan tartibda to'lab, istalgan vaqtda Shartnomani bajarishdan bosh tortish.

### III. Shartnomaning narxi va o'zaro hisob-kitoblar tartibi

3.1. Mazkur Shartnomaning narxi :

| № | Xizmatlar nomi | O'lchov birligi | soni | Narxi | so'mmasi | QQS | Jami so'mmasi |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Issiq ovqat (nonushta, tushlik, ikkinchi tushlik, kechki ovqat) 20% ustama haqi bilan birga | portsiya | 9186 | 14400 | 132 278 400 | | 132 278 400 |
| | JAMI | X | **9186** | **14400** | **132 278 400** | | **132 278 400** |

**132 278 400** ( Bir yuz uttiz ikki million ikki yuz etmish sakkiz ming turt yuz ) so'mni tashkil etadi.

( so'mma son va so'z bilan)

3.2. Autsorserga oldindan 30 foiz miqdoridagi to'lov 5 bank kuni ichida o'tkaziladi.

3.3. Autsorser tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'zaro hisob-kitoblar bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlarning amaldagi qiymati bo'yicha 70 foiz miqdorida haqiqatda ko'rsatilgan xizmatlar summasidan kelib chiqib o'n kunda kamida bir marta amalga oshiriladi.

3.3.1. Ovqatlanadigan bir kishi uchun ko'rsatiladigan xizmatlarning amaldagi narxi Autsorser yetkazib beruvchidan xarid qilgan va tegishli me'yorlar bo'yicha tasdiqlangan oziq-ovqat mahsulotlarining amaldagi narxi ovqatlanuvchilarning soniga ko'paytirish yo'li bilan Buyurtmachi tomonidan belgilanadi. Hosil bo'lgan yakuniy summa 20 foizgacha ustama haqi miqdoriga ko'paytiriladi (ya'ni, umumiy summa autsorserning 20 foizgacha ustama haqiga ko'paytiriladi).

3.3.2. Ovqatlanuvchilarning amaldagi soni haqidagi ma'lumotlar va ovqatlanadigan bir kishiga ko'rsatiladigan xizmatlarning amaldagi narxi asosida Buyurtmachi kundalik taomnomaga (oziq-ovqat mahsulotlarining taqsimotiga) muvofiq Autsorser bilan birgalikda har o'n kunda to'lanishi lozim bo'lgan summani ko'rsatgan holda bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasini tuzadi va hisob-fakturani rasmiylashtiradi hamda ular Autsorser rahbari va shifoxona bosh shifokori tomonidan imzolanadi.

3.3.3. Buyurtmachi tomonidan amalda ko'rsatilgan xizmatlar narxi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bajarilgan ishlar dalolatnomasi va hisob-faktura olingan vaqtdan boshlab 10 bank kuni davomida Shartnomada belgilangan summadan ortiq bo'lmagan miqdorda to'lanadi.

3.3.4. Mazkur Shartnomaga 2-ilovada ko'rsatilgan Shartnoma prognoz summasini hisoblash uchun oziq-ovqat mahsulotlarining narxlari o'zgarganda yoki boshqa asosli holatlarda Tomonlardan birining tashabbusi bilan bir oyda bir marta qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

## IV. Tomonlarning majburiyatlari

4.1. Autsorser Buyurtmachi shaxsiy tarkibining ovqatlanishini tashkil etishi bo'yicha Shartnoma majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmagan holatlarda Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi. Bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar oylik qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

4.2. Penya (jarima) to'lash Tomonlarni zimmasidagi majburiyatlarini bajarishdan yoki buzilishlarni bartaraf etishdan ozod qilmaydi.

4.3. Mazkur Shartnoma shartlarining bajarilmagani yoki tegishli darajada bajarilmagani uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining

shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikka tortiladilar.

4.4. Tomonlarning Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

### V. Munozarali vaziyatlarni hal etish tartibi

5.1. Mazkur Shartnomani bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar va kelishmovchiliklar imkon qadar Tomonlar o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal etiladi.

5.2. Nizolar va kelishmovchiliklarni Tomonlar o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal etish mumkin bo'lmaydigan holatlarda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan kelishmovchiliklarni suddan oldin bartaraf etish tartib-taomili amalga oshirilgandan so'ng ular O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda ko'rib chiqish uchun sudga beriladi.

### VI. KORRUPSIYAGA QARSHI BO'LIM

6.1 Shartnomaning shartlarini ijro etish vaqtida tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilari orqali o'zlarining maqsadlariga etishish uchun to'g'ri yoki bilvosita biron bir shaxslarning qarorlari yoki xarakatlariga ta'sir o'tkazish yo'li bilan noqonuniy afzalliklarga erishish uchun hech qanday qimmatli buyumlarni sovg'a qilmaydi, xizmatlar ko'rsatmaydi yoki to'lovlarni amalga oshirmaydi.

6.2. Shartnomaning shartlarini ijro etish vaqtida tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida pora olish yoki pora berish bilan kvalifikasiya qilinadigan hamda Qonunchilik va jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro hujjatlar bilan ta'qiqlangan xatti-xarakatlarni amalga oshirmaydilar.

6.3. Tomonlarning birida ushbu bo'limning biron-bir moddasi buzilganligi yoki buzilishi mumkinligiga shubha tug'ilganda ikkinchi tomonni yozma ravishda xabardor qiladi. Yozma xabarnomada xabar beruvchi tomon faktlarga tayangan yoki tegishli materiallarni taqdim etgan holda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida pora olish yoki pora berish bilan kvalifikasiya qilinadigan hamda Qonunchilik va jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro hujjatlar bilan ta'qiqlangan xatti-xarakatlar amalga oshrilganligini yoki amalga oshirilishi mukinligi to'g'rsida ma'lumotlar mavjud bo'lishi kerak. Yozma xabarnomani yuborgandan keyin, holatning bo'lgan yoki bo'lmaganligi to'g'risidagi tasdiqlovchi hujjatni olgunicha tomon shartnomaning shartlarini bajarishni to'xtatib turishi mumkin. Tasdiqlovchi hujjat xabarnoma yuborilgan kundan 10 ish kuni ichida taqdim etilishi kerak.

6.4. Yuqorida ko'rsatilgan moddalarda ko'rsatilgan shartlarning buzilishini tomonlardan biri tan olsa yoki ushbu holat qonun talablariga binoan tasdiqlansa, ushbu holat shartnoma shartlarining qo'pol ravishda buzilishi hisoblanadi va ikkinchi tomon uchun yozma ravishda xabarnoma jo'natish orqali bir taraflama shartnoma shartlarini to'liq yoki qisman bajarishni rad qilishga asos bo'ladi. Yuqorida ko'rsatilgan holatlar asosida shartnomani bekor qilgan tomon aybdor tomondan shartnomani bekor qilinishidan keltirilgan haqiqiy zararni undirish huquqiga ega.

6.5.Agar shartnoma bo’yicha bir tomon (davlat organi yoki tashkilotning nomi) xodimining axloqqa to’g’ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O’zbekiston Resoublikasi qonunchilik hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo’lgan faktlarga duch kelsa,bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

Korrupsiya haqida xabar berishga mo’ljallangan ishonch telefoni; (+99871) 202-20-19 рақамли)
electron pochta -kanali E-mail: info@anticorruption.uz.)
(davlat organi yoki tashkilotning nomi) rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki electron pochta.

## VII. Fors-major holatlar

7.1. Tomonlar majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar bunday holat yengib bo'lmas kuch, ya'ni tabiiy ofaatlar, tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda holatlar oqibati hisoblansa, javobgarlikdan ozod qilinadi. Bunda mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati mutanosib ravishda ushbu hodisalar ro'y bergan muddatga orqaga suriladi

## VIII. Yakunlovchi qoidalar

8.1. Ushbu Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ular yozma shaklda rasmiylashtirilib, Tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolangandan so'ng haqiqiy hisoblanadi. Mazkur Shartnomaga barcha ilovalar uning ajralmas qismini tashkil etadi.

8.2. Tomonlarning hech biri mazkur Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa Tomonning yozma shakldagi roziligisiz biror-bir uchinchi tomonga berib yuborishi mumkin emas.

8.3. Ushbu Shartnoma ikki nusxada tuzilgan. Ikkala nusxa aynan bir xil bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega. Tomonlarning har birida mazkur Shartnomaning bir nusxasi bo'ladi.

## IX. Mazkur Shartnomaning amal qilish muddati

9.1. Ushbu Shartnoma ikki tomonlama imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

## X. Tomonlarning manzili va bank rekvizitlari

| **"Buyurtmachi"** | **"Autsorser"** |
|---|---|
| Nurafshon SHTB | MCHJ "WELKOME GUESTS " |
| Manzil: Shifokorlar 22 uy | Manzil: Toshkent vil, Angren sh ,Angren ul 5 dom 3 |
| INN:207331449 OKED: _____________ | INN: 309 387 019 OKED: |
| ShXV:401322860274017073101054001 | X/r: 2020 8000 9055 0617 1001. |
| Toshkent shaxar markaziy bank XKKM | Bank: "DAVR BANK"XATB CHILONZOR filiali |
| X/r:23402000300100001010. | MFO:01046. |
| MFO: 00014. INN: 201122919 | |
| m.o. **M.M.Peltabaeva** ____________________ | m.o. ____________________ **G'.ALLAYEV** |

Аутсорсинг шартлари асосида хизматларни кўрсатиш бўйича шартномага

ИЛОВА

**ШАРТНОМАНИНГ ПРОГНОЗ СУММАСИ**

| Т/р | Ойлар | Ойдаги кунлар сони | Ўлчов бирлиги | Хизмат бирлиги учун нарх (сўм) | Хизмат бирликлари сони | Жами сумма ҚҚС сиз (сўм) | ҚҚС % | Жами сумма ҚҚС билан |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Январь | 31 | порция | - | -- | - | - | - |
| 2. | Февраль | 28/29 | порция | - | - | - | - | - |
| 3. | Март | 31 | порция | - | - | - | - | - |
| 4. | Апрель | 30 | порция | - | -- | - | - | - |
| 5. | Май | 31 | порция | | | | | |
| 6. | Июнь | 30 | порция | | | | | |
| 7. | Июль | 31 | порция | | | | | |
| 8. | Август | 31 | порция | | | | | |
| 9. | Сентябрь | 30 | порция | 14400 | 9186 | 132 278 400 | | 132 278 400 |
| 10. | Октябрь | 31 | порция | - | -- | - | - | - |
| 11. | Ноябрь | 30 | порция | - | - | - | - | - |
| 12. | Декабрь | 31 | порция | - | -- | - | - | - |
| | **Шартноманинг жами суммаси** | **365/366** | | 14400 | 9186 | 132 278 400 | - | 132 278 400 |

*(Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 11.01.2020 й., 09/20/16/0046-сон)*

Нурафшон ШТБ бошлиғи М.М.Пелтабоева

MCHJ "WELKOME GUESTS"

рахбари G'.ALLAYEV

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI TOSHKENT VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH BOSHQARMASI NURAFSHON SHAHRI TIBBIYOT BIRLASHMASI

WELCOME GUESTS
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI ANGREN TUMANI MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI

## Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 144812 на приобретение Иссиқ овқат (нонушта,тушлик,иккинчи тушлик, кечки овқат) билан таъминлаш хизмати

Способ проведения электронный

Дата 08.09.2022

Время рассмотрения 08.09.2022 13:22

Конкурсная комиссия Нурафшон шахар тиббиет бирлашмаси, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Член комиссии** | MAXKAMOV XAKIM XAMDAMOVICH | Xodim | Nurafshon SHTB |
| **Член комиссии** | CHURATAYEVA ALIYA SAXADILLAYEVNA | bo'lim boshlig'i | nurafshonshtb |
| **Член комиссии** | ABDULLAYEVA DILFUZA ABDUMANNAPOVNA | Касаба уюшмаси раиси | Нурафшон ш штб |
| **Член комиссии** | MURATOVA NASIBA TURSUNBAYEVNA | bosh xamshira | nurafshonshtb |
| **Председатель комиссии** | XASANOV SHUXRAT ISOMIDDINOVICH | Бош хисобчи | nurafshonshtb |
| **Секретарь комиссии** | TURAYEV BAXRAMDJAN ERGASHALIYEVICH | xodim | Nurafshon SHTB |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 08.09.2022 года № лота 144812.
Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 20

Предмет закупки:

| Наименование товара (работы, услуги) | Услуги по организации горячего питания |
|---|---|
| Подробное описание | Услуги по организации горячего питания |
| Количество товара | 9 186.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 16 000.00 |
| Стартовая сумма | 146 976 000.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Банкдан картотекада турмаслиги туғрисида маьлумот асл нусхаси тақдим этилиш керак Маьлумотнома олинганига бир ойдан ошмаган булиши керак 8. Озиқ овқатларни этказиб бериш муддати ва бир хафтали озиқ овқат менюси Умумий ишлаб чивиш графиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Банкдан картотекада турмаслиги туғрисида маьлумот асл нусхаси тақдим этилиш керак Маьлумотнома олинганига бир ойдан ошмаган булиши керак 8. Озиқ овқатларни этказиб бериш муддати ва бир хафтали озиқ овқат менюси Умумий ишлаб чивиш графиги

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| EXCELLENT CONSTRUCTION MCHJ | 20 | 20 | 16 | Экспертная | | |
| "WELCOME GUESTS" | 20 | 25 | 20 | Экспертная | | |

Критерий №2 Ташкилотнинг Давлат идоралари рўйхатидан ўтказилаганлаиги хақидаги гвохнома мавждлиги Гувохнома нусхаси 2 Ташкилотда фаолият юритувчи ходимлар сони (Ф,И,Ш, лавозими хамда иш тажрибаси хақида тўлиқ маьлумот, QR коди билан) Малумотнома QR коди билан) 3 Танлов иштирокчисининг иш хақи жамғармаси ва ходимлар ўртача сони бўйича кўрсаткичлари (солиқ қумитасидан маьлумотнома) Солиқ қумитасидан маьлумотнома

Тип: Текстовое значение

Описание: Ташкилотнинг Давлат идоралари рўйхатидан ўтказилаганлаиги хақидаги гвохнома мавждлиги Гувохнома нусхаси 2 Ташкилотда фаолият юритувчи ходимлар сони (Ф,И,Ш, лавозими хамда иш тажрибаси хақида тўлиқ маьлумот, QR коди билан) Малумотнома QR коди билан) 3 Танлов иштирокчисининг иш хақи жамғармаси ва ходимлар ўртача сони бўйича кўрсаткичлари (солиқ қумитасидан маьлумотнома) Солиқ қумитасидан маьлумотнома

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| EXCELLENT CONSTRUCTION MCHJ | 20 | 20 | 15 | Экспертная | | |
| "WELCOME GUESTS" | 20 | 25 | 20 | Экспертная | | |

Критерий №3 4 Озиқ овқат етказиб бериш учун захираси мавжудлиги ва техника билан таминланганлиги Малумотнома тасдиқланган холда тақдим этилсин 5. Озиқ овқатларни уз воқтида етказиб бериш хақида кафолат хати кафолат хати 6. Солиқ органидан солиқ ва бошқа мажбурий тўловлардан қарздорлиги мавжуд эмаслиги тўғрисида маьлумотнома мавжудлиги Маьлумотнома олинганига бир ойдан ошмаган булиши керак

Тип: Текстовое значение

Описание: 4 Озиқ овқат етказиб бериш учун захираси мавжудлиги ва техника билан таминланганлиги Малумотнома тасдиқланган холда тақдим этилсин 5. Озиқ овқатларни уз воқтида етказиб бериш хақида кафолат хати кафолат хати 6. Солиқ органидан солиқ ва бошқа мажбурий тўловлардан қарздорлиги мавжуд эмаслиги тўғрисида маьлумотнома мавжудлиги Маьлумотнома олинганига бир ойдан ошмаган булиши керак

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| EXCELLENT CONSTRUCTION MCHJ | 20 | 20 | 15 | Экспертная | | |
| "WELCOME GUESTS" | 20 | 25 | 17 | Экспертная | | |

Критерий №4 Шунга ухшаш ишларни бажарилганлиги (охирги у йиллик маьлумот) Асословчи хужжат 10 Танлов иштирокчилари томонидан коррупсия кўринишларига йўл қўйилмаслиги бўйича кафолат хатининг мавжудлиги Кафолат хати

Тип: Текстовое значение

Описание: Шунга ухшаш ишларни бажарилганлиги (охирги у йиллик маьлумот) Асословчи хужжат 10 Танлов иштирокчилари томонидан коррупсия кўринишларига йўл қўйилмаслиги бўйича кафолат хатининг мавжудлиги Кафолат хати

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **EXCELLENT CONSTRUCTION MCHJ** | 20 | 20 | 16 | Экспертная | | |
| **"WELCOME GUESTS"** | 20 | 25 | 20 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Применение преференции | Общее значение (UZS) | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **EXCELLENT CONSTRUCTION MCHJ** | 146 976 000.00 | 146 884 140.00 UZS | 146 884 140.00 | 00.00 | 146 884 140.00 | 07.09.2022 10:24:16 | 18.01 |
| **"WELCOME GUESTS"** | 146 976 000.00 | 132 278 400.00 UZS | 132 278 400.00 | 00.00 | 132 278 400.00 | 07.09.2022 13:19:00 | 20.00 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---|---|---|---|
| **EXCELLENT CONSTRUCTION MCHJ** | 62 | 18.01126 | 80.01126 |
| **"WELCOME GUESTS"** | 77 | 20 | 97 |

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 144812 от 08.09.2022 года на приобретение Иссиқ овқат (нонушта,тушлик,иккинчи тушлик, кечки овқат) билан таъминлаш хизмати определила победителем:

"WELCOME GUESTS"
309387019

и резервный исполнитель: EXCELLENT CONSTRUCTION MCHJ (303226499)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | XASANOV SHUXRAT ISOMIDDINOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | MAXKAMOV XAKIM XAMDAMOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | CHURATAYEVA ALIYA SAXADILLAYEVNA | Согласен | |
| **Член комиссии** | MURATOVA NASIBA TURSUNBAYEVNA | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

4857194

Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

# GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"WELCOME GUESTS" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"WELCOME GUESTS" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

18.03.2022 1113622 ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR): 309387019

| | |
|---|---|
| Tashkiliy-huquqiy shakli: | Mas'uliyati cheklangan jamiyat |
| Joylashgan joyi: | Toshkent viloyati, Angren shahri, Ташкентская область, г.Ангрен, ул. 5 даха, дом 3, кв. 0, |
| Guvohnoma: | Toshkent viloyati, Angren shahri, DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI tomonidan berilgan |

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):

Нурафшон шаҳар Тиббиёт бирлашмаси xarid.uzex.uz орқали электрон энг яхши таклифни танлаш харид тури орқали 2022 йил 29 августда №144812 лот рақами орқали 146 976 000 сўмлик уч махал иссиқ озиқ овқат билан таминлаш бўйича танловга эълон қилган ушбу элон натижасига кўра 08.09.2022-йилда танлов баённомаси электрон шакллантирилган ушбу баённома икки кун мухокомага асосан ЎРҚ 684- сонли қонунига 62- моддасига мувофиқ танлов комиссиялари иштирокида икки иш кунида мурожатлар тушмаганлиги тўғрисида.

Шахар тиббиёт бирлашмаси бошлиги
М.М.Пелтабаева

Б а ё н н о м а № 10

2022 йил Нурафшон шахри

Нрафшон шаҳар Тиббиёт бирлашмаси xarid.uzex.uz орқали электрон энг яхши таклифни танлаш харид тури орқали 2022 йил 29 августда №144812 лот рақами орқали 146 976 000 сўмлик уч махал иссиқ озиқ овқат билан таминлаш бўйича танловга эълон жойлаштирган. Танлов бўйича электрон тижорат таклифлари беш иш куни мобайнида қабул қилинган. Танлов бўйича электрон тижорат таклифларини қабул қилишнинг охирги санаси 2022 йил 08 сентябр бўлган. Танлов бўйича электрон тижорат таклифларини қабул қилиш 2021 йил 22 апрелдаги ЎРҚ-684-сонли қонуннинг 58-моддаси талабларига мос келади. 2022 йил 29 августдан 07 сентябрга қадар танловда иштирок этиш учун 2 та корхонадан электрон тижорат таклифи қабул қилинган:EXCELLENT CONSTRUCTION MCHJ, “WELCOME GUESTS” лар ўз таклифлари билан иштирок этган. Танлов ўтказиш бўйича 5 кишидан иборат харид комиссияси тузилган бўлиб, танлов ғолибини аниқлаш бўйича танлаш ўтказишда 2 киши иштирок этган ва баённомани электрон равишда тузиб, электрон рақамли имзо билан тасдиқланган. Бу 2021 йил 22 апрелдаги ЎРҚ-684-сонли қонуннинг 57-моддаси талабларига мос келади. Танлаш натижаси балл методи асосида баҳоланган бўлиб, танлов натижаларига кўра “WELCOME GUESTS” ушбу №144812 лот рақамига 132 278 400 сум таклиф килиб ғолиб деб топилган.

08.09.2022-йилда электрон тузилган баённома икки иш куни мобайнида мухокомага жойлаштирилганида хеч қандай этирозлар келиб тушмаганлиги юзасидан мажлис утказдик. Мажлисда тиббиёт бирлашмасининг доимий ишловчи танлов комиссияси раиси Ш.Хасанов комиссия аьзолари Н.Муротова, А.Чуратаева, Д.Абдуллаева, Н.Наримова иштирок этди.

Комиссия карор килади:

1 Нурафшон шахар тиббиёт бирлашмасига уч махал иссиқ озиқ овқат билан таминлаш бўйича шартномага асосланган холда пул маблаги ажратилсин.
2 Шахар тиббиёт бирлашмаси “WELCOME GUESTS” ни ғолиб деб топди.

Аьзолари

Комиссия раиси: Ш.Хасанов

Комиссия азолари: Н.Муратова

А.Чуратаева

Д.Абдуллаева

Н.Наримова

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: BQ1755722472

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI**
**TOSHKENT VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI**
**NURAFSHON SHAHAR YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI**
111515, Nurafshon shahri, Toshkent yo'li ko'chasi,
tel.: (998 70) 201-05-15, el.pochta: nurafshonyurmarkaz@adliya.uz

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUNCHILIKKA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

EE16212267

Loyihaning turi: shartnoma

2. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Nurafshon shahar tibbiyot birlashmasi masul xodimlari tomonidan 2022-yil 15-sentyabr kuni qayta kiritilgan

3. Loyiha mazmuni Nurafshon shahar tibbiyot birlashmasi raxbari va Autsorser deb ataluvchi MCHJ "WELKOME GUESTS " o`rtasida shartnoma

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Nurafshon shahar yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i 1-darajali yurist** **F.Nazarov**